



## Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-avgust holatiga)

Ro'yxatdan  
o'tgan

**82,1 ming.**

2019-yilning 1-avgust holatiga 82,1 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,0 foizga o'sgan.

Faoliyat  
ko'rsatayotgan

**79,3 ming.**

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 13,6 mingta (17,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 79,3 mingtani tashkil etgan.

Yangi tashkil  
etilganlar

**12,5 ming.**


2019-yilning yanvar-iyul oylarida Toshkent shahrida 12,5 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,0 mingtaga ko'pdir.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(2019-yil 1-avgust holatiga)



2019-yilning 1-avgust holatiga 82,1 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,0 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 23,9 % - savdo, 18,3 % - sanoat, 7,6 % - qurilish, 7,3 % - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % - tashish va saqlash, 3,8 % - axborot va aloqa, 1,8 % - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,0 % - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda 32,2 % - boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (19685 ta) savdo, (15052 ta) sanoat, (6243 ta) qurilish, (808 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (5970 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (3346 ta) tashish va saqlash, (3137 ta) axborot va aloqa, (1498 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda (26453 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 79,3 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 13,6 mingta (17,2 %) ga o'sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat




Qurilish




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Axborot va aloqa




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Boshqa turlari

# Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni tumanlar kesimida, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Yunusobod (10630 ta), Chilonzor (10134 ta), Mirzo Ulug'bek (8928 ta), Olmazor (8469 ta), Shayxontohur (7671 ta), Yakkasaroy (7138 ta), Uchtepa (7170 ta), va Mirobod tumanlar (6746 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yashnobod (5903 ta), Sirg'ali (4698 ta) hamda Bektemir (1843 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar









(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-iyul oylarida 12505 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 5087 taga ko'pdir.



2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (5381 ta), sanoat (1995 ta), qurilish (1107 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (769 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlash (404 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (156 ta), hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (136 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Savdo



4548

Tashish va saqlash



296

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



546

Qurilish



804

Sanoat




1517

Axborot va aloqa



307

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



122

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



91


Boshqa turlari



1575


# Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Uchtepa (1710 ta), Chilonzor (1576 ta), Olmazor (1509 ta), Yunusobod (1469 ta), Mirzo Ulug'bek (1219 ta), Shayxontohur (1166) va Mirobod (947 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yashnobod (916 ta), Yakkasaroy (830 ta), Sergeli (733 ta) hamda Bektemir (430 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2017-2019-yillarning  
yanvar-iyul oylarida yangi  
tashkil etilgan korxonalar  
va tashkilotlar soni



Korxonalar sonining o'sishi, birlikda



# TIJORAT KORXONALARI


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-avgust holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 69,7 mingtani tashkil qildi

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonalar




Oilaviy korxonalar




Unitar korxonalar



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2019-yil 1 avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 5563 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 1423 taga yoki 25,5 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

(1-avgust holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan  
xorijiy sarmoya ishtirokidagi  
korxonalar soni.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan  
o'sish sur'ati %




Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 2474 tasi qo'shma, 3089 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Mirobod tumanida 933 ta (jamidagi ulushi 16,8 %), Yakkasaroy tumani 875 ta (15,7 %), Yunusobod tumanida 741 tani (13,3 %), Mirzo Ulug'bek tumanida 691 ta (12,4 %), Chilonzor tumanida 649 ta (11,7 %), Yashnobod tumanida 459 ta (8,2 %) va Shayxontohur tumanida 385 ta (7,0 %) tashkil etilgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Olmazor tumanida 305 ta (5,5%), Sirg'ali tumanida 221 ta (4,0 %), Uchtepa 170 ta (3,0 %) hamda Bektemir tumanlarida 134 ta (2,4 %) tashkil etgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklariga to'g'ri keladi.


## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



2019-yilning yanvar-iyul oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 788 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 298 taga ko'paygan.

Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 176 ta, Xitoy Xalq Respublikasi – 171 ta, Rossiya Federatsiyasi – 152 ta, Qozog'iston Respublikasi – 140 ta va Koreya Respublikasi – 73 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdoda 410 ta, sanoatda 189 ta, qurilishda 148 ta va 319 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarni yillar kesimida soni, birlikda



2019-yil 1 avgust holatiga respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 69,7 mingtani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 18,9 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-iyul oylarida 12,0 mingdan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 42,0 mingtaga ko'proqdir.



# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamiyatdagi ulushi 1 avgust holatiga

## • Eng katta ulushi

## • Eng kichik ulushi



•Yunusobod tumani  
13,3 %



•Yakkasaroy tumani  
9,2 %



•Chilonzor tumani  
12,7 %



•Mirobod tumani  
8,1 %



•Olmazor tumani  
11,0 %



•Yashnobod tumani  
7,4 %



•Mirzo Ulug'bek tumani  
11,0 %



•Sirg'ali tumani  
6,1 %



•Shayxontohur tumani  
9,4 %




•Bektemir tumani  
2,4 %



•Uchtepa tumani  
9,4 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 69,7 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 18,9 mingta (27,1 %) – savdo, 14,4 mingta (20,8 %) - sanoat, 5,9 mingta (8,6 %) - qurilish, 0,7 mingta (1,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5,6 mingta (8,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 3,1 mingta (4,6 %) - tashish va saqlash, 2,9 mingta (4,2 %) - axborot va aloqa sohasi, 1,2 mingta (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, 16,6 mingtasi (23,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi %



# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

1,1




Sanoat

16,5



Qurilish

9,1



Savdo

44,5



Tashish va saqlash

3,3



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

6,3




Axborot va aloqa

3,3



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,2




Boshqa turlari

14,7



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 5378 ta, sanoat 1988 ta, qurilish 1105 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 768 ta tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda 404 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda 151 ta hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 135 ta tashkil etilgan.


## Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Uchtepa (1681 ta), Chilonzor (1524 ta), Olmazor (1465 ta) va Yunusobod (1414 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yakkasaroy (788 ta), Sirg'ali (714 ta) hamda Bektemir (426 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1 avgust holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni tumanlar kesimida soni, birlikda

2019-yil 1-avgust holatiga



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 41,6 % yoki 1115 tasi sanoat, 18,0 % yoki 484 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,7 % yoki 502 tasi savdo, 2,8% yoki 75 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,3 % yoki 36 tasi qurilish, 1,0 % yoki 27 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 22tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 1,5 % yoki 42 tasi axborot va aloqa hamda 14,3 % yoki 379 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Toshkent shahar  
statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi boshlig'i  
Rashidov Aziz  
Tel.:71-230-88-31**